



**Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisini majburiy tartibda chiqarib
yuborishning dolzarb masalalari**

Sherikbayeva Mushtariy Erkin qizi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BIZNES HUQUQI KAFEDRASI

4-kurs Xususiy huquq fakulteti talabasi ning

erkinovnam97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola doirasida mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining jamiyat va boshqa ishtirokchilar oldidagi majburiyatlarining mohiyati hamda ishtirokchilar o'rtasidagi murosasiz nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri - ishtirokchini ta'sischilar safidan majburiy tartibda chiqarib yuborish institutining dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Bunda, ishtirokchini ta'sischilar safidan majburiy tartibda chiqarishga oid muammoli masalalarning vujudga kelish sabablari, qonunchilikdagi bazi bo'shliqlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Fidutsiar majburiyat, duty of care, duty of loyalty, duty to disclose, duty of confidentiality, duty of good faith.

Kirish: Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari turli davlatlarning qonunchiligida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, umumiy holatda MChJ ishtirokchilari odatda quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladilar:

Moliyaviy hissa qo'shish: Ishtirokchilar jamiyat ustavida hamda ta'sis shartnomasida yoki qonunda nazarda tutilgan holda va muddatlarda kapital kiritishlari shart. Ushbu hissa naqd pul, mol-mulk yoki xizmatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.



Ustav qoidalariga va ta'sis shartnomasiga rioya qilish: Ishtirokchilar ta'sis shartnomasi hamda ustavda ko'rsatilgan shartlarga rioya qilishlari shart, ularga boshqaruvida ishtirok etish, uning faoliyati bilan bog'liq zarur harakatlarni amalga oshirish kabi majburiyatlar kiradi.

Fidutsiar majburiyatlar: Ishtirokchilar jamiyat va boshqa ishtirokchilar oldidagi ishonchlilik majburiyatlarni jumladan, sodiqlik va g'amxo'rlik burchini ham oladilar. Bu ular jamiyat va uning qolgan ishtirokchilari manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlari kerakligini anglatadi.

Huquqiy va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish: Ishtirokchilar MChJ faoliyatini tartibga soluvchi barcha amaldagi qonunlar va qoidalarga, shu jumladan soliq qonunlari, mehnat qonunlari va sohaga oid qoidalarga rioya qilishlari kerak.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda fidutsiar majburiyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular kompaniya rahbarlari va a'zolarining huquqiy va axloqiy majburiyatlarini belgilaydi. Fidutsiar majburiyatlar tashkilotda ishonch, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, pirovardida uning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligiga hissa qo'shish uchun muhim ahamiyatga ega.

Fidutsiar majburiyat, manfaatdor shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy va axloqiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- ❖ **G'amxo'rlik majburiyati (Duty of Care);**
- ❖ **Sodiqlik burchi (Duty of Loyalty);**
- ❖ **Oshkor qilish majburiyati (Duty to Disclose);**
- ❖ **Maxfiylik majburiyati (Duty of Confidentiality);**
- ❖ **Insoflilik burchi (Duty of good faith)**

G'amxo'rlik majburiyati – bu mavjud ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganishga asoslangan variantlarni puxta o'ylab ko'rish va oqilona qaror qabul qilishni o'z ichiga olishi



mumkin. Bu ishonch bildirilgan shaxs benefitsiarning manfaatlari uchun to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qilishga alohida e'tibor berishini anglatadi. Ya'ni qaror qabul qilishdan oldin ko'rib chiqilayotgan masalani tushunish, tegishli ma'lumotlarni to'plash va barcha variantlarni ko'rib chiqish talab etiladi.

Sodiqlik burchi – bu har doim benefitsiarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish bilan bog'liq. Agarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelsa, o'z manfaatlarini emas balki kompaniya va mulkdorlarning manfaatlarini ustun qo'yishni nazarda tutadi. Sodiqlik burchi shuni anglatadiki, ishtirokchilar o'z vakolatlarini amalga oshirayotganlarida **vijdonan**, **halollik** va **shaffoflik** bilan harakat qilishi kerak. Bu kompaniya yoki uning aksiyadorlari hisobidan aynan ushbu ishtirokchiga foyda keltiradigan operatsiyalarni amalga oshirish kabi manfaatlar to'qnashuvidan qochishni anglatadi.

Maxfiylik majburiyati – bu ishonch bildirilgan shaxs benefitsiarga tegishli barcha ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi zarurligida namoyon bo'ladi. Ya'ni ishtirokchilar hamda direktorlar kompaniyaga tegishli ma'lumotlarni maxfiy saqlashlari va undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari kerak.

Malumotlarni oshkor qilish majburiyati – bu ishtirokchilar jamiyat va uning boshqa ishtirokchilari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish majburiyatini anglatadi¹. Bunga jamiyat bilan raqobatlashishi mumkin bo'lgan ishtirokchilarning har qanday moliyaviy manfaatlari kiradi. Ushbu majburiyat boshqa ishtirokchilar va kompaniya manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qarorlar haqida aniq va o'z vaqtida ma'lumot berishda ifodalanadi.

Insofililik burchi – bu ishtirokchilarning o'z manfaatlari yo'lida qisqa muddatli foydadan ko'ra, kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini birinchi o'ringa qo'yish uchun ovoz berishidir. Ishtirokchilar vijdonan harakat qilishlarining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

¹ <https://www.investopedia.com/ask/answers/042915/what-are-some-examples-fiduciary-duty.asp>.



- ❖ biznes munosabatlarida shaffoflik;
- ❖ jamiyat va uning manfaatdor tomonlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilish;
- ❖ harakatlarning kompaniya maqsadlariga mos kelishini ta'minlash;
- ❖ yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va hal qilish uchun jamiyat faoliyatini muntazam ravishda ko'rib chiqish va baholash.

Korporativ huquqiy munosabatlarda o'zaro ishtirokchilar o'rtasida hamda kompaniya va ishtirokchilar o'rtasida turli ichki nizolar kelib chiqadi. Jumladan, umumiy yig'ilish qarorlarini hamda bitimlarni haqiqiy emas deb topish, boshqaruv organlarini o'z fidutsiar majburiyatlarini buzgaliklari uchun javobagrlikka tortish masalalari, yetkazilgan zararni undirish va biz muhokama qilayotgan mavzu ishtirokchilarni ta'sislar safidan majburiy tartibda chiqarib yuborish kabi nizolarni misol qilib keltirish mumkin. O'z navbatida, ishtirokchilarni ta'sislar safidan chiqarishga oid nizolarni hal etish uchun bazi davlatlar qonunchiligida mazkur institutni tartibga soluvchi ijobiy yechimlar ishlab chiqilgan va qonunchiligida aks ettirilgan bo'lib biroq, bizning qonunchiligimizda ushbu institutni tartibga soluvchi qoidalar yetarli darajada mukammal emas. Xususan, amaliyotda kelib chiqayotgan ushbu turdagi nizolar mazkur institutni tartibga soluvchi qoidalarni rivojlantirish zaruratini tobora oshirib bormoqda. Bu esa bizni, amaliyotda kelib chiqayotgan muammolarning sabablarini o'rganib ularni oldini olish va nizolarni asosli hal etish uchun, rivojlangan davlatlar amaliyotini hamda qonunchiligini o'rganish orqali masalaga muqobil yechim topishga undaydi.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”Qonunning 8 - moddasida chiqarib tashlash asoslari sifatida quyidagilar nazarda tutilgan:

- ❖ ishtirokchi o'z majburiyatlarini qo'pol ravishda buzishi;
- ❖ o'z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermaslik yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirish.



Shunday qilib, ishtirokchini chetlashtirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqayotganda, sudlar ko‘pincha kompaniya ishtirokchisi o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda kompaniya manfaatlari yo‘lida vijdonan va oqilona harakat qilishi kerakligini ta’kidlaydilar².

Ishtirokchining jamiyat manfaatlarini ko‘zlab harakat qilish majburiyatini buzishi “birgalikda faoliyat olib borish to‘g‘risidagi bitim”ni jiddiy buzish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Shu bois, boshqa ishtirokchilarga qoidabuzarni ishtirokchilar safidan chiqarib tashlash orqali shartnomaga o‘zgartirishlar kiritishni talab qilish huquqini beradi. Xususan, E.A. Suxanov fikriga ko‘ra, ishtirokchini chiqarib tashlash tomonlardan birining iltimosiga binoan shartnomani o‘zgartirish sifatida baholanishi mumkin (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 450–moddasi 2–bandi). Ispan huquqshunosi F.H. Framinan Santas, kompaniyadan ishtirokchini majburiy tartibda chiqarib tashlash institutini o‘rganish jarayonida ishtirokchini chiqarish yuridik shaxsning tashkiliy - huquqiy shakliga bog‘liq emas, balki majburiyatlarning buzilishi bilan bog‘liq³ deb hisoblaydi. S.A. Babkin fikriga asosan jamiyat ishtirokchilariga jamiyatdan chetlatish mezonlarini o‘zlari belgilashlari zarurligini ta’kidlaydi ya’ni korporativ huquqda ixtiyoriylikni kengaytirishni ilgari suradi⁴. Bizning fikrimizcha, bunday pozitsiya o‘zini oqlamaydi unga ko‘ra tomonlar ushbu masala bo‘yicha ustavda tegishli qoidalarni kelishib olmagan bo‘lsalar, ishtirokchini chiqarib yuborish masalalarida nizolar kelib chiqadi. Shuningdek, to‘liq bo‘lmagan shartnomalar muammosini inobatga olgan holda, jamiyat ishtirokchilarining oqilona ixtiyoriga tayanmaslik lozim, bu tomonlar cheklangan oqilonalik tufayli shartnomada barcha mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan ko‘ra olmasligi bilan izohlanadi.

². Постановление ФАС Уральского округа от 27.10.2009 по делу № А50-5799/2009

³. Framiñán Santas F.J. Op. cit. P. 111–115.

⁴. С.А.Бабкин. Принципы диспозитивности и свободы договора в корпоративном права России Корпоративное право: Актуальные проблемы теории и практики / Под общ. ред. В.А. Белова. С. 148–150.



Ko'plab nizolar ishtirokchilarning umumiy yig'ilishlarida uzrli sabablarsiz qatnashmaganlik natijasida ishtirokchini chetlashtirish bilan bog'liq. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" Qonunning 34 - modda 2 - qismiga asosan jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishda shaxsan yoki o'z vakillari orqali ishtirok etishga haqli ekanligi belgilangan bo'lib, mazkur huquq bir vaqtning o'zida jamiyat ishtirokchisining majburiyati hamdir. Biroq Qonunning 9-moddasida jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilishda qatnashishi majburiyat sifatida belgilanmagan zero, jamiyat manfaatlariga taalluqli ishlarni umumiy yig'ilish tomonidan ko'rib chiqiladigan holatlarda ishtirokchining unda qatnashmasligi ishtirokchilarning umumiy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

A.V. Gabovning fikriga ko'ra, ishtirokchining jamiyat boshqaruvida ishtirok etish huquqi mohiyatan majburiyat hamdir⁵. Demak jamiyat boshqaruvida ishtirok etish bir vaqtning o'zida ishtirokchining ham huquqi ham majburiyatdir. Shu sababli, ishtirokchining umumiy yig'ilishda muntazam ravishda uzrli sabablarsiz ishtirok etmasligi uni ishtirokchilar safidan chetlatishga asos bo'lishi mumkin agarda, bu **jamiyat ishtirokchilarini umumiy yig'ilishda uning barcha ishtirokchilarining yakdilligini talab qiladigan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum qilsa albatta**. Demak, yuqoridagi asoslarga ko'ra, kompaniya ishtirokchilarining umumiy yig'ilishlarida qatnashishdan **uzrli sabablarsiz muntazam ravishda qatnashmaslik**, kompaniyani kun tartibidagi masalalar bo'yicha muhim biznes qarorlarini qabul qilish imkoniyatidan mahrum qilish, agar bunday qarorlarni qabul qilmaslik jamiyatga jiddiy zarar etkazsa va (yoki) uning faoliyatini imkonsiz qilsa yoki sezilarli darajada qiyinlashtirsa, ishtirokchini jamiyatdan chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. "***Jamiyatni muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatidan mahrum qilish***" iborasi qoidabuzarlik muhimligining alohida holati sifatida tushunilishi kerak, ya'ni. ishtirokchining harakatlarini

⁵. Габоов А.В. Указ. соч. С. 69.



(harakatsizligini) baholash uchun umumiy yig'ilishning tegishli qarorini qabul qilmaslik natijasida kompaniyaning normal faoliyatiga to'siqlar yaratilganmi yoki yo'qligini aniqlash muhimdir. Bir vaqtning o'zida, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibiga rioya qilish faktini aniqlash juda muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, jamiyat ishtirokchisining umumiy yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashmasligi, agar ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibiga rioya qilinganligi xususan, yig'ilish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinganligi qonun hujjatlari talablarida amalga oshirilgan bo'lsa va bu da'vogarlar tomonidan to'g'ri bajarilganligi isbotlangan taqdirdagina, umumiy yig'ilishda qatnashishdan bo'yin tovlash deb tan olinishi mumkin⁶. Shu bilan birga, umumiy yig'ilishni chaqirish tartibining buzilishi umumiy yig'ilishda qatnashmaslik uchun asos bo'lmasligini hisobga olish kerak. Umumiy yig'ilishni o'tkazib yuborish sabablarining "asosliligi" ishtirokchi jamiyat manfaatlari yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilish majburiyatini buzganligini baholash orqali aniqlanadi, ya'ni. u muhim biznes masalalarini hal qilishda ishtirok etish uchun zarur harakatlarni amalga oshirmagan. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ishtirok etish majburiyatining bajarilishi oddiy fuqarolik majburiyatini bajarish bilan bir xil standartlar bilan baholanishi kerak. Bundan tashqari sud, ishtirokchining umumiy yig'ilishda ishtirok etishdan bo'yin tovlashi jamiyat uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qarorni qabul qila olmaslik shaklida **jamiyat uchun yuzaga keladigan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlashi kerak.**

Masalan, aslida ishtirokchining umumiy yig'ilishda ishtirok etishiga ehtiyoj bo'lmasligi mumkin, chunki kun tartibidagi masalalar bo'yicha qarorlar uning ishtirokisiz qabul qilinishi mumkin (ulush miqdorining 10 foizdan kamligi qaror qabul qilishga ta'sir qilmagan

⁶. постановления ФАС Волго-Вятского округа от 19.03.2008 по делу № А79- 3263/2007; ФАС Центрального округа от 23.11.2009 по делу № А62-4865/2008; ФАС Восточно-Сибирского округа от 05.11.2008 по делу № А19-4630/08; ФАС Северо-Кавказского округа от 31.05.2005 № Ф08-2053/2005; ФАС Северо-Западного округа от 10.07.2009 по делу № А21-10433/2008; ФАС Поволжского округа от 01.12.2008 по делу № А49-3075/2008; ФАС Дальневосточного округа от 20.07.2009 по делу № А24-3402/2008.



holatlarda) bo'lsa yoki bunday ishtirokchidan tashqari umumiy yig'ilishda boshqa ishtirokchilar ham bo'lmagan bo'lmasa, va hokazo), lekin bunday xulosa mavhumdir. Shu munosabat bilan, biz quyida taklif qilingan yechimni qo'llab-quvvatlashimiz mumkin, sud qo'shimcha ravishda, agar sudlanuvchidan tashqari, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishida boshqa ishtirokchi ham bo'lmaganligi aniqlangan taqdirda⁷, sud ishtirokchini jamiyatdan majburiy tartibda chiqarib tashlash to'g'risidagi da'voni qanoatlantirishi mumkin emas. Lekin bu holatda, da'vogar umumiy yig'ilishda ishtirok etishdan bo'yin tovlagan barcha ishtirokchilarni jamiyatdan chiqarib yuborishni talab qilish huquqidan mahrum bo'lmaydi. Boshqa tomondan, jamiyatning ustav kapitalida 10% va undan kam ulushga ega bo'lgan ishtirokchining umumiy yig'ilishga muntazam ravishda kelmasligi ishtirokchini mas'uliyati cheklangan jamiyatdan chiqarish to'g'risidagi talabni bazi hollarda qanoatlantirishni rad etilishiga asos bo'lishi mumkin. Chunki, bu jamiyat ustavida nazarda tutilgan jamiyat ishtirokchilari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadigan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilinishiga xalaqit bermaydi. Shuningdek, ishtirokchining umumiy yig'ilishda qatnashishdan bosh tortganligi sababli kun tartibidagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilishning imkoni yo'qligi o'z-o'zidan uni chetlashtirish uchun asos bo'lmasligi lozim (misol uchun: jamiyat nomini o'zgartirish_) bunda da'vogar bunday qarorlarning iqtisodiy zarurligini va ularni qabul qilmaslikning salbiy oqibatlarining yuzaga kelishini yoki kompaniya faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'lganligini isbotlashi kerak.

Amaliyotda ishtirokchilar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarning ko'pchiligini ishtirokchi tomonidan ustav kapitaliga belgilangan muddatlar hissa qo'shmaslik holatlarida yuz beradi. Ustav kapitaliga hissa qo'shmaslik ikki holatda yuzaga keladi:

1) kompaniya tashkil etilganda;

⁷. Постановления ФАС Восточно-Сибирского округа от 06.10.2005 № А33-16961/04; ФАС Поволжского округа от 18.01.2010 по делу № А12-14830/2009



2) umumiy yig'ilish tomonidan ustav kapitalini ko'payishi to'g'risida qaror qabul qilinganda.

O'z navbatida, haqli savol savol tug'iladi yuqoridagi ikki holat ishtirokchining jamiyatdan majburiy tartibda chiqarilishiga asos bo'ladimi? Bunga javobni quyida batafsil izohlaymiz.

Qonuning 9-moddasida jamiyatning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o'z hissasini to'liq kiritishi kerakligi belgilangan bo'lib, agarda ishtirokchi Qonning 22-moddasiga asosan jamiyatni ta'sis etish chog'ida jamiyatning ustav fondiga o'z hissasini belgilangan muddatda to'liq miqdorda kiritmasa ulush jamiyatga o'tishi belgilangan. Ta'kidlash joizki, ulushini belgilangan muddatda kiritmaslik kompaniya faoliyatini jiddiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Bu holatda jamiyat ishtirokchisini ishtirokchilar safidan chiqarish maqsadga muvofiq. Chuni ishtirokchining harakatlari va harakatsizligi natijasida jamiyat manfaatlariga zarar yetmoqda. Ishtirokchi tomonidan ustav kapitaliga hissalar o'z vaqtida kiritilmasligi natijasida uni ishtirokchilar safidan chiqarib yuborish uchun, jamiyat faoliyatida yengib bo'lmaydigan to'siqlar yuzaga kelganligini inobatga olish kerak(to'lovga qobilyatsizlik belgilarining vujudga kelish va kompaniya qarzdorligi vujudga kelishi).

Bundan tashqari, Qonunning 16-moddasiga asosan jamiyatning ustav fondini ko'paytirish, ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga amalga oshirish to'g'risida umumiy yig'ilish qaror qabul qilsa va ushbu holatda ham ishtirokchi tomonidan qo'shimcha hissalar ustav kapitaliga belgilangan miqdorlarda va muddatlarda kiritilmagan bo'lsa, Qonunning 18-moddasiga asosan agar hissalar qo'shishning belgilangan muddati o'tgandan keyin qo'shimcha hissalar ishtirokchi tomonidan to'liq yoki qisman qo'shilgan bo'lmasa umumiy yig'ilish ulushini tegishli o'zgartirib, amalda qo'shilgan hissasi miqdorigacha yoki oldingi yig'ilish qarori bilan belgilangan ulushlarini saqlab qolish imkoniyatini beradigan miqdorgacha kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli ekanligi



belgilangan bo'lib, bunday qaror qabul qilinmagan taqdirda jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi amalga oshmagan hisoblanadi va jamiyat o'n kunlik muddat ichida jamiyat ishtirokchilariga ular tomonidan kiritilgan pul hissalarini qaytarishi shart ekanligi belgilangan. Ushbu holatda, ishtirokchi tomonida hissa to'liq yoki qisman kiritmasligi natijasida, ulushini mutanosib ravishda kamaytirish shaklidagi choraning qo'llanilishi, yuzaga kelgan adolatsizlikni yo'q qiladimi? Bizning fikrimizcha har doim ham emas, chunki kelishilgan miqdorni to'lamaslik boshqalar va jamiyatning manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, jamiyat ustavida uchinchi shaxslarning hissalarini evaziga ustav kapitalini ko'paytirish taqiqlangan yohud umumiy yig'ilish qarori bilan rad etilgan bo'lsa. Shuningdek, bu holatda jamiyat moliyaviy ahvolining jiddiy yomonlashganligi misol uchun, qo'shimcha hissalarini kiritmaslik uni bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, ishtirokchini ta'sischi safidan chiqarish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Korporativ munosabatlarning o'ziga xosligini, yopiq korporatsiyalarning mulkiy munosabatlardagi ahamiyatini, cheklangan javobgarlik tushunchasining jamiyat va uning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarda alohida o'ringa ega ekanligini shuningdek, ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlarining klassifikatsiyasini har tomonlama chuqur tahlil qilish korporativ munosabatlarda ishtirokchilarni ta'sischi safidan majburiy tartibda chiqarib yuborishga oid nizolarning asosiy muammolarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)



2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995 (28.02.2024-y., 03/24/914/0161-son)
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’suliyati cheklangan hamda qo‘shimcha ma’suliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 01.03.2002. 310-II-son Qonun. (22.02.2024-y., 03/24/91100/0142-son)
4. Корпоративное право в таблицах и схемах. / И. С. Шиткина 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Юстицинформ, 2016. — с.20.
5. Кашанина Т.В. Хозяйственные товарищества и общества: Правовое регулирование внутрифирменной деятельности. - Москва, 1995.
6. 1.18. Основные положения гражданского права: постатейный комментарий к статьям.